

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Ta’lim tizimidagi islohotlar va nodavlat oliy ta’lim muassasalarining hozirgi zamon talablari asosida davlat oliy ta’lim muassasalari bilan raqobatdoshligi.

Nosirov Amirxon Bahodir o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tyutori

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va nodavlat oliy ta’lim muassasalarining hozirgi zamon talablari asosida davlat oliy ta’lim muassasalari bilan raqobatdoshligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassalariga **moliyaviy mustaqillik berish istiqbollari tahlil qilingan**.

Kalit so‘zlar: nodavlat oliy ta’lim muassasalari, **moliyaviy mustaqillik**, xalqaro akkreditatsiya, litsenziya.

Bugungi kunda nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va o‘quv-metodik ta’minot yuzasidan raqobat har doimgidanda kuchliroq namoyon bo‘lmoqda. Raqobat bor joyda dolimo rivojlanish bo‘lganidek, ta’lim sifati ham o‘zaro raqobat jarayonida kundan kunga yaxshilanib bormoqda. Shuning uchun raqobat jarayoninig erkin va oshkora namoyon bo‘lishini muhim sanaladi. Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Ushbu farmonga asosan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 1-ilovasiga muvofiq quyidagilar nazarda tutilgan:

- Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;
- O‘zbekiston Milliy Universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

- Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;
- Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;
- Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;
- Oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish¹ kabi muhim vazifalar ilgari surilgan.

Bundan tashqari Prezidentimizning 03.07.2023 yildagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-son qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekistonda oliy ta’lim dasturlari yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari dasturlari asosida qayta ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi bekor qilinib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimi joriy etiladi. Bunda:

- kompleks davlat akkreditatsiyasi har 4 yilda ta’lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida o‘tkaziladi;
- litsenziysi bekor qilingan ta’lim tashkiloti yoki yopilgan ta’lim dasturida tahsil olayotgan talabalarga o‘qishini davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarining mos va turdosh ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko‘chirish huquqi beriladi.

Ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish amaliyoti joriy etiladi. Jumladan:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

- xalqaro reyting tashkilotlarining amaldagi ro‘yxatida birinchi 1 000 talikka kirgan oliy ta’lim tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi;

- reyting ta’lim tashkilotining faoliyati va ta’lim jarayoniga aralashmagan holda ma’lumotlarni axborot tizimi orqali olish yo‘li bilan yuritiladi.

2024 yil 1 yanvardan boshlab:

- reyting davlat va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari bo‘yicha umumiyligi aniqlanadi;

- so‘nggi besh yil davomida reytingda birinchi 10 talik o‘rinni egallagan oliy ta’lim tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi.

2025 yil 1 yanvardan boshlab:

- nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash bo‘yicha kvota ularning reytingdagi o‘rniga muvofiq ajratiladi;

- oliy ta’lim tashkilotlarining ta’lim sohalari kesimidagi reytingini yuritish yo‘lga qo‘yiladi.

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab:

- akademik litseylarga o‘quvchilarni qabul qilishda yozma imtihon asosida dastlabki saralash bosqichi bekor qilinadi;

- kollej va texnikumlarning ta’lim dasturlariga davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari 2 baravarga oshiriladi;

- startap loyihasini hamda ratsionalizatorlik g‘oyasini bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilish amaliyoti joriy etiladi;

- oliy ta’lim muassasalarini talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to‘lanadigan qisqa muddatli maqsadli ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil etiladi.

2024/2025 o‘quv yilidan boshlab:

- oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish “avval test, so‘ng tanlov” tamoyili asosida tashkil etiladi. Abituriyentlarga test sinovi natijasida to‘plagan balidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim yo‘nalishi va shaklini tanlash imkoniyati yaratiladi;

- umumta’lim fanlari bo‘yicha xalqaro imtihon natijalari bo‘yicha sertifikatlar davlat oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda inobatga olinadi.

Oliy ta’limda olib borilayotgan islohotlarning yaqqol misoli sifatida 2022 yilning o‘zida 35 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi va yil mobaynida ularning soni 41 taga yetdi. Yana muhim vakolatlardan biri OTM strategik rejalarini tuzish. Bulardan tashqari moliyaviy masalalardagi vakolatlar ham bor. Kvotalar masalasi ham xuddi shunday mustaqil tarzda hal qilinyapti. Bosqichma-bosqich boshqa OTMga ham bunday vakolatlar berish ko‘zda tutilgan. 2026-yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. 2022-yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygochlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo‘ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish. Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish. Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o‘quv yurtlari sonini 10 taga yetkazish. Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo‘ljallangan “Yoshlar shaharchasi”ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish. Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg‘armasini, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang‘ich raqs san’ati maktab-internatini tashkil etish. 2026-yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish² belgilangan bo’lib amalda ularning soni 2023-yildayoq ularning soni 64 taga yetgazilgani islohotlar natijasi zamirida deyish mumkin.

Nodavlat oliy ta’limini tubdan rivojlantirish hamda ta’lim sifatini taminlash maqsadida shoshma shosharlik va ko‘r ko‘ronalikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Darhaqiqat son jihatdan ustunlikka erishish sifat unutilishi kerak degani emas. Bunga misol tariqasida “VALLEY INNOVATIVE UNIVERSITY” MCHJga nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan litsenziyasi bekor qilindi. Farg‘ona

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sodan

tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 17-iyuldagisi hal qiluv qarori bilan “VALLEYINNOVATIVE UNIVERSITY” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga 2022-yil 13-dekabrda nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan 053546-sonli litsenziya bekor qilindi. Bo‘lib o‘tgan sud majlisi muhokamalarida oliy ta’lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan qo‘pol qoidabuzarliklar sudga taqdim etilgan asosli hujjatlar bilan o‘z isbotini topdi. Nodavlat ta’lim sohasida umumiy va alohida litsenziya talablari hamda shartlariga rioya etishda qator qo‘pol qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yanligi aniqlandi. Jumladan:

- 1) mazkur oliy ta’lim tashkilotining litsenziyada ko‘rsatilgan foydalanish uchun ajratilgan bino-inshootlari muassislarga mulk huquqi yoki ijara shartnomasi asosida tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emas;
- 2) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining HEMIS axborot tizimiga ta’lim oluvchilar va pedagog xodimlar to‘g‘risida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumotlar kiritilmagan;
- 3) vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bilan shug‘ullanadigan rektor maslahatchisi shtat birligi joriy etilmagan;
- 4) ta’lim tashkilotining bankdagi hisob varag‘ida 150 ming AQSH dollari yoki shu miqdor ekvivalentdagi mablag‘ mavjud emas;
- 5) 60 ta kompyuter texnikasi bilan jihozlangan elektron kutubxona va 20 ta kompyuter texnikasi, skaner va nusxa ko‘chirish apparati bilan jihozlangan axborot-resurs markazi tashkil etilmagan;
- 6) ta’lim oluvchilar har bir fandan o‘quv adabiyotlari (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari) bilan ta’minlanmaganligi aniqlandi³.

Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan nodavlat oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish faoliyatini litsenziyalash bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilindi. Tahlillar davomida ushbu yo‘nalishda mas’ul tashkilotlar tomonidan belgilangan vazifalar samarali amalgalama oshirilmayotgani, normativ-huquqiy bo‘shliqlar va boshqa korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyil bo‘lgan holatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, **2022-yil va 2023-yilning o‘tgan davri davomida** faoliyati litsenziyalangan **65** ta nodavlat oliy ta’lim muassasalaridan **38** tasiga litsenziya berishda **82** ta holatda turli kamchilik va qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan. Xususan, **22** ta holatda talabgorlarga davlat yong‘in

³ <https://oliygoz.uz/post/bir-xususiy-oliygoz-litsenziyasi-bekor-qilindi>

nazorati va sanitariya-epidemiologiya xizmati organlarining **tegishli xulosalari olinmagan** holda litsenziya berilgan. Shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan talabgorlar tomonidan qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq elektron tizimga **o'quv reja va fan dasturlari to'liq yuklanmagan yoki umuman yuklanmagan** bo'lsa-da, ularga litsenziyalar berib kelingan. Tahlil yakunlari bo'yicha Agentlik tomonidan nodavlat oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish faoliyatini litsenziyalash sohasida mavjud **korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar** ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi⁴.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'yemoqda. Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarining tizimdagi kamchiliklarnianiqlash va ularni keyinchalik yo'q qilish, shuningdek, ularning rivojlanish potentsiali va yo'llarini aniqlash uchun ba'zi omillarning boshqalarga ta'siri mezonlarini belgilashga imkon beradi. Bularning barchasi ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

⁴ <https://anticorruption.uz/uz/item/2023/08/17/nodavlat-oliy-talim-muassasalari-faoliyatini-litsenziyalash-bilan-bogliq-korrupsiyaviy-xavf-xatarlarni-bartaraf-etish-boyicha>